UO‘K 94 (575.1)

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA O‘ZBEKISTON QISHLOQ AHOLISINING MODDIY AHVOLI (1945–1953-yillar)

J.H. Yusupov

Maqolada Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekiston qishloq aholisining turmush sharoiti va moddiy ahvoli masalasi yangi ilmiy ma’lumotlar asosida o‘rganilgan. O‘zbekiston qishloqlarida amalga oshirilgan agrar islohotlarning natijalari tahlil etilib, bu davrda o‘zbek qishloqlaridagi aholining moddiy ahvoliga doir ma’lumotlar umumlashtirilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida joriy etilgan soliqlar turlari, ularning miqdori, aholiga tomorqa xo‘jaligi bo‘yicha belgilangan natural majburiyatlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *agrar islohot, Ikkinchi jahon urushi, qishloq xo‘jaligi, soliqlar, paxtachilik, tomorqa xo‘jaligi, kolxoz, yakka dehqon xo‘jaligi, moddiy daromad, oziq-ovqat mahsulotlari, qurg‘oqchilik, natural majburiyatlar.*

В статье на основе новых научных данных изучены условия жизни и материальное положение сельского населения Узбекистана после Второй мировой войны. Проанализированы результаты аграрных реформ, проведенных в кишлаках Узбекистана, обобщены сведения о материальном положении населения в узбекских кишлаках в этот период. Также представлена информация о видах налогов, введенных в сельском хозяйстве, их размере, натуральных обязательствах, установленных для населения по приусадебным хозяйствам.

Ключевые слова: *аграрная реформа, Вторая мировая война, сельское хозяйство, налоги, хлопководство, приусадебное хозяйство, колхоз, индивидуальное дехканское хозяйство, материальный доход, продукты питания, засуха, натуральные обязательства.*

Ikkinchi jahon urushi natijasida sovet davlati iqtisodiyotining agrar sektori juda og‘ir talafotlar ko‘rdi. Kolxoz va sovxozlar moddiy-texnik bazasi urushdan avvalgi uchta besh yillik mobaynida yaratilgan bo‘lib, bu moddiy-texnik baza urush natijasida tamoman vayron bo‘lgan edi. Qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan ko‘pgina texnika vositalari (yuk avtomobillari va traktorlar) urush davrida front ehtiyojlari uchun olib qo‘yildi, agrar sektor tasarrufida qoldirilgan texnika vositalarining aksariyati esa urush yillarida yaroqsiz holga kelgan, chunki urush sharoitida sanoat korxonalari bunday texnika vositalari uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarmagan edi. Eng og‘iri, urush davrida mehnatga yaroqli aholi sonining keskin kamayishi qishloq xo‘jaligi holatiga, ayniqsa, og‘ir ta’sir ko‘rsatdi.

Urushdan keyingi ilk yillar sovet xalqi, umuman, sovet mamlakati uchun nihoyatda qiyin davr bo‘ldi. Urushdan keyingi yillarda hamon oziq-ovqat yetishmas, aksariyat oziq-ovqat mahsulotlari kartochka bo‘yicha taqsimlanar edi [1. B. 56]. Kiyim-kechak, poyafzal ham tanqis, uy-joy masalasi ham og‘ir edi. Urush tinch hayotdan millionlab sog‘lom, mehnatkash aholi vakillarini tortib oldi, millionlab bolalarning yetim qolishiga, millionlab ayollarning beva bo‘lishiga va millionlab kishilarning nogiron bo‘lib qolishiga sabab bo‘ldi.

Urushdan keyingi ilk yillarda qishloq xo‘jaligi ancha past sur’atda rivojlana boshladi, chunki u og‘ir inqirozni boshdan kechirayotgan edi: ekin maydonlari, mashina va traktor parklari qisqargan, mavjud texnikalar esa eskirib ketgandi. Urush yillarida mamlakatdagi mehnatga yaroqli aholi soni deyarli uchdan bir qismga yoki 32,5 foizga kamaydi. Xususan, mehnatga yaroqli erkaklar 1941-yil 1-yanvardagi 16,9 million kishidan 1946-yil 1-yanvarida 6,5 million kishiga yoki 2,6 baravarga kamaydi [2. B. 28–29]. Shu bois, urushdan keyingi ilk yillarda qishloq xo‘jaligini tiklash asosan ayollar, keksalar va o‘smirlar zimmasiga tushdi, ular urush yillarining butun og‘irligini o‘z zimmalariga oldilar. Ularning fidokorona mehnati tufayli front va front orti oziq-ovqat mahsulotlari bilan, sanoat esa xomashyo bilan ta’minlandi.

Urush tugab, mamlakatda tinch hayotning boshlanishi sovet xalqi tomonidan intiqlik bilan kutilgan, ayni paytda kishilar mavjud turmush sharoitlarining yaxshilanishidan umidvor edi. Biroq muayyan qiyinchiliklar urushdan keyingi yillarda ham davom etdi.

1947-yil dekabrida mamlakatda pul islohoti o‘tkazilishi bilan bir vaqtda kartochka rejimi bekor qilindi va nonning narxi pasaytirildi. Ayni paytda bir qator muhim oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari narxlari oshirildiki, buning natijasida aholi aksariyat qismining bu mahsulotlarni sotib olish imkoniyati cheklanib qoldi. Bundan tashqari, urushdan keyingi turmush tarzi ehtiyojlarning o‘sishini rag‘batlantirmadi, shuning uchun ham urushdan keyingi yillarda do‘konlar xaridorlar bilan to‘lib-toshmas edi. Bu holat keyingi yillarda sovet davlati rahbariyatining iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni rivojlantirmasdan, asosan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridagi past xarid narxlarini saqlab qolish hisobiga keng iste’mol tovarlari narxlarini muntazam pasaytirib borishiga sabab bo‘ldi [3. B. 278–279].

O‘zbekiston SSR iqtisodiyoti oldiga qo‘yilgan eng muhim vazifalar 1946–1950-yillarga mo‘ljallangan besh yillik rejada belgilandi. Bunga ko‘ra, xalq xo‘jaligining barcha sohalariga 3 mlrd. 900 mln. so‘m kapital mablag‘ ajratildi. Sanoatni rivojlantirish ishlari respublika iqtisodiyotining yetakchi sohasi bo‘lgan paxtachilikni rivojlantirishga qaratildi [4. B. 117].

1946-yilda mamlakatning bir qator hududlarida (Moldaviya, Ukraina va RSFSRning janubi) og‘ir qurg‘oqchilik yuz berib, ocharchilik boshlandi. Ayni paytda mamlakatda yetishtirilayotgan g‘alla Sharqiy Yevropa davlatlariga eksport qilinardi. Boshqaruv mexanizmi, dehqonlarning turmush sharoitlariga e’tiborsizlik, qishloqdan resurslarni maksimal darajada tortib olish susaymadi, aksincha, yanada kuchaydi. Davlat bilan kolxozlar o‘rtasidagi tovar-pul munosabatlari bekor qilindi.

Qurg‘oqchilik oqibatida g‘alla va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari hosildorligi keskin kamayib ketdi. 1946-yildagi yalpi g‘alla hosili bor-yo‘g‘i 39,6 million tonnani tashkil etdi, bu 1945-yildagi hosilga (47,3 mln. tonna) nisbatan ancha kam, 1940-yildagi yalpi hosil 95,6 million tonnani tashkil qilgani e’tiborga olinsa, undan qariyb 2,2 baravarga qisqargan edi [2. B. 25].

Qurg‘oqchilik natijasida yuzaga kelgan ochlik avvalo, dehqonchilikka og‘ir talafot keltirdi, zero, kolxozlar o‘zlari yetishtirgan g‘allani to‘lig‘icha davlatga topshirgan edi. Bundan tashqari, dehqonlar o‘zlarining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlardan ham davlatga natural soliq to‘ladilar va ularning mehnatiga pul bilan kafolatlangan haq to‘lash tizimi hali mavjud emas edi. Kolxozchilar mehnati uchun natural haq to‘lash o‘ta oz miqdorni tashkil qilardi.

1947-yil fevralda o‘tkazilgan VKP (b) Markaziy Komitetining plenumi mamlakat qishloq xo‘jaligini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan edi. Biroq uning qarorlarida hech qanday yangilik ilgari surilmadi. Urushdan keyingi agrar siyosat urushdan oldingi siyosatning uzviy davomi bo‘ldi. Bundan tashqari, davlatning qishloqdan mablag‘ undirishi yanada kuchaydi [5. B. 16].

Plenumning bevosita aniq qarorlari, avvalo, qishloq xo‘jaligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratildi. Avtomobil va traktorlar, o‘g‘itlar, turli xil qishloq xo‘jaligi mashinalari ishlab chiqarish ko‘paytirildi. To‘rtinchi besh yillikda (1946–1950) sanoat korxonalari qishloq xo‘jaligiga 248 ming traktor, 93 ming g‘alla kombayni va 281 ta yuk mashinasini yetkazib berdi. 1950-yilda mamlakat dalalarida traktor va kombaynlar soni urushdan oldingiga nisbatan 40–50 foizga ko‘paydi [6. B. 174]. Ammo qishloq xo‘jaligi texnikasi davlat qo‘lida bo‘lib, kolxozlar undan faqat MTS orqali foydalanishlari mumkin edi va ularning xizmatlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ko‘p miqdorda haq to‘lashlari shart edi.

O‘zbekistonda urush asoratlari asta-sekin kamayib bordi. Qishloq xo‘jaligi 1950-yilga kelib ba’zi muhim ko‘rsatkichlar bo‘yicha 1940-yil darajasiga yaqinlashdi. Jumladan, barcha toifadagi xo‘jaliklarning yalpi mahsuloti 99 foizni, dehqonchilik mahsuloti esa 97 foizni tashkil etdi. Paxta bo‘yicha urushdan oldingi holatdan 58 foizga, qand lavlagi va kartoshka bo‘yicha esa 16 foizga oshib ketdi [7. B. 204].

Biroq iqtisodiyotning bu sohasidagi vaziyat juda murakkabligicha qolaverdi. Buni ikkita muhim holat ko‘rsatib turardi. Birinchisi qishloq xo‘jaligining rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liq bo‘lib, 1950-yillarning boshlaridayoq uning rivojlanish sur’atlari sezilarli darajada pasaydi. Keyin esa turg‘unlikka o‘xshash beqaror barqarorlik holati yuzaga keldi. Yalpi mahsulotning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 1940-yillar oxirida taxminan 8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, keyinchalik 1–2 foizgacha tushib ketdi [8. B. 605].

Ikkinchi holat dehqonlarning og‘ir ijtimoiy ahvoli bilan bog‘liq edi. Stalin agrar siyosati doirasida qishloq xo‘jaligini inqirozdan chiqarish va dehqonlar ahvolini yengillashtirish imkonsiz edi. Yuqorida ta’kidlanganidek, qishloqqa urushdan oldin ham, Stalinning vafotigacha ham davlatga zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini arzon narxlarda olish manbai sifatida qaralgan. Qishloq xo‘jaligi manfaatlari hanuz sanoat manfaatlariga bo‘ysundirilgan edi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xarid narxlari juda past darajada saqlanib qoldi, bu esa ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tannarxini qoplashga ham imkon bermadi. Kolxoz mahsulotlarining katta qismi davlat tomonidan majburiy yetkazib berish tizimi orqali olib qo‘yilardi. Shuni hisobga olish kerakki, 1928-yildan boshlab qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining davlat tomonidan xarid narxlari o‘zgarmay qolgan, holbuki, shu davr ichida sanoat mahsulot-

larining narxi 20 barobar oshgan edi. Keyinchalik N.S.Xrushchev davlat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini deyarli tekinga olganini tan olgan edi [9. B. 423].

Urushdan keyingi yillarda ham qishloq mehnatkashlari haq-huquqlarini cheklash siyosati ular to‘lashga qodir bo‘lmagan soliqlar tizimi bilan uyg‘unlashib ketdi. Qishloq aholisiga bir boshdan ortiq qoramol saqlash taqiqlangan edi. Tomorqadagi har bir mevali daraxtdan soliq undirilardi, kolxozchilarga pasport berilmas, ularning bir joydan boshqa joyga ko‘chish erkinligi cheklanardi. Shuningdek, qishloq mehnatkashlariga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi va pensiya ta’minoti berilmasdi, qishloqlarda maishiy va tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi nihoyatda past darajada edi [3. B. 285]. 1950-yillarning boshlariga kelib, kolxozchining o‘rtacha oylik daromadi 16,4 rublni tashkil etdi, bu sanoatdagi ish haqidan to‘rt baravar kam edi [10. B. 67].

Ayni yillarda kolxozchilar va boshqa qishloq aholisi uchun shaxsiy tomorqa yer maydonlari muntazam ravishda qisqartirib borildi. Agar 1950-yilgacha tomorqa yer maydoni me’yori 0,15 gektardan 0,25 gektargacha bo‘lgan bo‘lsa, 1950-yil yanvaridan boshlab u 0,12–0,15 gektargacha qisqartirildi va bu me’yordan ortiqcha bo‘lgan tomorqa yerlari tortib olinib, kolxozlarning bo‘linmas yer fondiga o‘tkazildi [11. B. 534]. Muhimi shundaki, bu siyosat urushdan keyingi og‘ir sharoitda, qishloq mehnatkashlarining asosiy oziq-ovqat manbai tomorqa yerlari bo‘lgan bir paytda amalga oshirildi.

Urushdan keyingi yillarda pul mablag‘laridan tashqari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini davlatga yetkazib berish bo‘yicha natural majburiyatlar ham o‘zgarishsiz davom etdi. 1945-yilda hukumat nemis-fashist bosqinidan ozod qilingan hududlarda chorvachilik mahsulotlaridan natural majburiyatlar yig‘ish tartibini qayta tikladi. Bu kabi majburiyatlar mamlakatning boshqa mintaqalaridagi, jumladan, O‘zbekiston SSRdagi kolxozlar va yakka dehqon xo‘jaliklari uchun ham aloqador bo‘ldi. Natural majburiyatlar bitta yakka dehqon xo‘jaligi uchun 40 kilogramm go‘sht, 75 dona tuxum va 150 litr sut hisobida belgilangan edi [12. B. 144].

Qishloqdagi dehqonlarning ahvoli nihoyatda og‘irligicha qolmoqda edi. Ular tomonidan yetishtirilgan go‘sht va sut ularga umuman qoldirilmasdan, davlat tomonidan to‘liq olib qo‘yilar edi. To‘yib ovqat emaslik va ochlik ko‘plab dehqonlar uchun haqiqiy tahdidga aylandi. Bu yillarda shaharlar aholisi qandaydir tarzda oziq-ovqat bilan minimal darajada ta’minlangan, lekin qishloqda vaziyat halokatli edi. Ana shunday vaziyatda butun mamlakatda dehqonlarning qishloqdan shaharlarga qochishi avj oldi. Chunki ular shaharlarda hayot kechirish birmuncha oson deb hisoblardilar. Atigi to‘rt yil ichida – 1949-yildan 1953-yilgacha butun mamlakat bo‘yicha kolxozlardagi mehnatga layoqatli kolxozchilar soni 3,3 million kishiga kamaydi [13. B. 68]. Lekin O‘zbekiston sharoitida dehqonlarning qishloqda qolib ishlashdan boshqa chorasi yo‘q edi. Chunki shaharlarda ular uchun ish o‘rinlari ham yo‘q edi. O‘zbek dehqonlari tirikchilik o‘tkazish uchun kolxoz va sovxozlar ishidan bo‘shagan paytida tomorqasida mehnat qilib, o‘zi va oilasini boqish uchun mahsulot yetishtirishga muvaffaq bo‘lar edi.

1946-yil mart oyida kolxoz xo‘jaliklarida davlatga majburiy sut yetkazib berishning o‘rtacha yillik me’yorlari kolxoz xo‘jaligida har bir sigir uchun 260 litrgacha, yakka tartibdagi dehqon xo‘jaligida esa 300 litrgacha belgilandi. 1948-yildan boshlab g‘alla va sholi ekinlari bo‘lgan kolxozchilar rayondagi shaxsiy dehqon xo‘jaliklari uchun belgilangan me’yorlar bo‘yicha majburiy yetkazib berishga jalb qilindi. 1949-yildan boshlab qo‘ylari bo‘lgan dehqon xo‘jaliklarining majburiy jun yetkazib berish majburiyati 50 foizga oshdi [14. B. 91].

Aynan shu siyosat natijasida kolxozchilarning shaxsiy foydalanishidagi chorva mollari keskin qisqarib ketdi. Mamlakatning ko‘plab hududlarida kolxozchilarning ijtimoiy ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnati shaxsiy uy-xo‘jaliklarida ishlashga qaraganda kamroq bo‘lganligi hukumat organlarini jiddiy tashvishga soldi. Kolxozlardagi chorvachilik juda sekinlik bilan rivojlandi.

Davlat majburiyatlari bo‘yicha qishloq xo‘jalik mahsulotlari tayyorlov narxlari kolxozlarning g‘alla yetishtirish xarajatlarining atigi 1/10 qismini, go‘sht yetishtirishning 1/20 qismini, sut yetishtirishning 1/5 qismini qoplaydigan darajada edi [15. Б. 97]. Mahsulotlar kolxozlardan deyarli tekinga olib ketilganligi sababli mehnat kunlari uchun to‘lovlar ham juda past bo‘lib, ko‘pchilik kolxozlarda odamlar bepul ishlashga majbur edi. Umuman olganda, qishloq xo‘jaligi dehqonning o‘z mehnati natijasidan shaxsiy manfaatdorligiga emas, balki iqtisodiy bo‘lmagan majburlashga asoslangan edi. Mehnat kunlarining qat’iy belgilangan normasi mavjud bo‘lib, uni bajarmaganlik uchun jazo – sud ta’qibi yoki tomorqa yer uchastkasidan mahrum qilish xavfi bor edi. Kolxozchilar va ularning oilalari asosan shaxsiy tomorqa yerlari hisobiga kun kechirar edi, tomorqadan foydalanganlik uchun ularga soliq solingan. Dehqonlarning shaxsiy xo‘jaligi ikki turdagi – pul shaklidagi va natural ko‘rinishidagi soliqqa tortilgan. Ikkala soliq miqdori ham uzluksiz oshib borgan. Agar 1940-yilda bitta dehqon xo‘jaligi o‘rtacha 112 so‘m soliq to‘lagan bo‘lsa, 1949-yilda bu miqdor 419 so‘mni, 1950-yilda 431 so‘mni, 1951-yilda 471, 1952-yilda 528 so‘mni tashkil qilgan [16. B.

180, 219]. Kolxozchilarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bo‘yicha davlatga majburiy yetkazib berish ko‘rinishidagi soliqlar solingan. Shaxsiy xo‘jaliklarga qat’iy majburiyat don, go‘sht, sut, kartoshka, tuxum, jun va boshqa mahsulotlar bo‘yicha joriy etilgan. 1940-yilda bitta shaxsiy tomorqa xo‘jaligi qat’iy majburiyat sifatida davlatga o‘rtacha 32–45 kg go‘sht topshirgan bo‘lsa, urushdan keyingi yillarda bu miqdor 40–60 kg.ni tashkil qildi [2. B. 179]. O‘rtacha bir dehqon xo‘jaligi bir yil davomida davlatga 300 kg kartoshka, 40–60 kg go‘sht, 200 litrgacha sut, 3 kg jun, 50 dona tuxum topshirishi shart edi [17. B. 23–24]. Mevali daraxtlar uchun ham soliq to‘lanar, shu sababli dehqonlar bu og‘ir yukdan qutulish uchun bog‘larini kesib tashlashga majbur bo‘lishardi.

Faqat 1953-yilga kelibgina davlatga majburiy yetkazib berilishi lozim bo‘lgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari normalari kamaytirildi, 1958-yildan boshlab qat’iy majburiyatlar to‘liq bekor qilindi [18. B. 633].

SSSR Davlat Reja qo‘mitasi va SSSR Ta’minot ministrligi ma’lumotlariga ko‘ra, 1947-yilda davlatga sutni majburiy yetkazib berishga jalb qilingan 222 ming kolxozdan 40 foizga yaqini bu majburiyatni bajara olmagan. 1933-yildan 1947-yilgacha bo‘lgan davrda har yili majburiy sut yetkazib berish bo‘yicha davlat rejalari barbod bo‘lgan. Xuddi shu manzara boshqa chorvachilik mahsulotlarini topshirishda ham namoyon bo‘ldi.

1940-yillarning oxirida qishloqda yana yangi qatag‘onlar va soliq qiyinchiliklari paydo bo‘ldi. 1948-yil 21-fevralda SSSR Oliy Soveti Prezidiumi “Qishloq xo‘jaligidagi mehnat faoliyatidan qasddan bo‘yin tovlagan va parazit turmush tarzini olib boradigan shaxslarni muayyan respublika hududidan chiqarib yuborish to‘g‘risida” farmon qabul qildi [19. B. 19]. Mahalliy hokimiyat organlari qishloqda yashovchi deyarli har qanday odamni respublikadan tashqarida chekka hududlarga deportatsiya qilish huquqini oldi. 1948-yil iyun oyidan boshlab farmon butun SSSR hududida amal qila boshladi.

Intizomni mustahkamlash bahonasida kolxozchilar, sovxoz ishchilari va yakka tartibdagi dehqonlarni ta’qib qilish boshlandi. Bularning barchasini dehqonlar ikkinchi bor mulkdan mahrum bo‘lish deb atashgan. Tatbiq etilayotgan qatag‘onlarning asosiy maqsadi xalqni qo‘rqitish, kolxozlarga qarshi tobora kuchayib borayotgan norozilik kayfiyatini sindirish, qishloq aholisini davlat foydasiga imkon qadar arzon ish haqi evaziga ishlashga majburlash va shu bilan birga imkon qadar yakka dehqon xo‘jaliklarini kolxoz va sovxozlarga haydab kiritish edi [14. B. 93].

Ilgari kolxoz dalasida qancha hosil olinganidan qat’i nazar, traktorchi har bir mehnat kuni uchun kolxozdan kamida 3 kilogramm don olar va bu kafolatlab qo‘yilgan minimum deb hisoblanar edi. 1947-yildan boshlab bu kafolat minimumi ikki xil miqdorda belgilandi: traktor brigadasi ishlagan uchastkada hosildorlik rejasi bajarilgan taqdirdagina traktor brigadasi xodimining har bir mehnat kuniga 3 kilogramm don berilar edi. Ammo hosil rejadagidan kam olingan bo‘lsa, traktor brigadasi xodimining har bir mehnat kuniga 2 kilogrammdan oshmaydigan miqdorda don beriladigan bo‘ldi. Rejadan tashqari olingan mahsulot uchun MTS xodimlariga qo‘shimcha haq to‘lash tartibi kolxozlarga tavsiya qilindi. Traktor brigadalarining mehnatiga haq to‘lashning yangi tizimi dala ishlarini yuqori sifatli qilib bajarishga va hosildorlikni oshirishga rag‘batlantiradigan bo‘ldi [20. B. 191–192].

1948-yilda “Qishloq xo‘jaligi solig‘i” qonuniga o‘zgartirishlar kiritildi. Xuddi shu manbalar va daromad stavkalari bilan soliq miqdori 30 foizga oshdi. Bunday chora-tadbirlar bilan hukumat kutilgan natijaga erisha olmadi, chunki u aholining potensial to‘lov qobiliyatini umuman hisobga olmagan edi. Agar farmonga qadar soliq to‘lash aql bovar qilmaydigan qiyinchiliklar bilan kechgan bo‘lsa va dehqonlarga naqd pul hamda naqd qimmatga tushgan bo‘lsa, u ko‘paygandan keyin ko‘pchilik qishloq aholisi uchun davlat bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilish imkonsiz bo‘lib qoldi. Dehqonlar uchun, ayniqsa, shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarga to‘lanadigan soliqlar qiyin bo‘lib, ular dehqonni tomorqa yerlarini qisqartirishga, kolxozdagi mehnat faoliyatiga ko‘proq e’tibor berish uchun chorva mollarining bir qismidan voz kechishga majbur qilishga qaratilgan edi.

Natijada kolxozchi oilasi asosiy tirikchilik manbaidan mahrum bo‘ldi. Bunday hollarda ular haddan tashqari choralar ko‘rishga majbur bo‘ldilar. Ular soliqlardan qutulish uchun chorva hayvonlari sonini, tomorqadagi ekin maydonlarini qisqartirdilar, hovlisidagi mevali daraxtlarni kesib tashladilar. Oqibat shu bo‘ldiki, dehqonlar soliq yukidan qutulish uchun ko‘rgan ushbu choralar davlat g‘aznasiga soliqlar bo‘yicha tushadigan mablag‘larning keskin kamayib ketishiga olib keldi. Sovet davlatining soliq yukini ko‘paytirish evaziga davlat byudjetini boyitishga qaratilgan agrar sohadagi soliq siyosati davlat uchun ham, dehqonlar uchun ham zararli bo‘lib chiqdi.

Umuman, 1945–1953-yillarda kolxoz a’zolariga nisbatan tatbiq etilgan soliq siyosatida quyidagi tendensiyalarni kuzatish mumkin: soliq stavkalarining o‘sishi; hisoblangan rentabellik stavkalarining narxlar darajasi va real o‘sish bilan taqqoslanmaydigan o‘sishi; daromad, daromad solig‘ini oshirish va aholi uchun imtiyozli shart-sharoitlarni kamaytirish. Urushdan keyingi davrda kolxozlarning real holatini hisobga olmagan pul solig‘i yukining umumiy ortishi

hukumatning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kolxoz bozorlarida sotishni rag‘batlantirishga intilishi bilan izohlanadi.

O‘sha yillardagi agrar siyosatda kolxozlarni yiriklashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ijobiy deb baholash mumkin. Ikki yil ichida (1950–1952-yillar) birlashtirishlar natijasida mamlakat bo‘yicha kolxozlar soni 252 mingdan 91 mingtaga, ya’ni 2,7 barobar kamaydi. Ular avvalgilaridan ancha yirikroq bo‘lib, bir nechta qishloqlarni o‘z ichiga oldi. Ilgari bitta kolxozga o‘rtacha 80 ta oila to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, endi bu ko‘rsatkich 220 taga yetdi. Har bir kolxoz ixtiyorida o‘rtacha 4 ming gektardan ortiq qishloq xo‘jaligi yerlari mavjud edi [21. B. 430–431]. Kolxozlarning yiriklashuvi ularni ko‘p tarmoqli xo‘jaliklarga aylantirish uchun sharoit yaratdi, MTS texnikasidan yanada samaraliroq foydalanila boshlandi, boshqaruv apparatini saqlash uchun moliyaviy xarajatlar qisqardi. Biroq bu tashkiliy islohotning ijobiy ahamiyati amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat tufayli yo‘qqa chiqdi. Bu siyosat ba’zi kolxozlar uchun xonavayronlik keltirdi, boshqalariga esa oz miqdorda daromad olish imkonini berdi, xolos.

Kolxozlar amalda o‘z mehnatlarining natijalarini ko‘rish imkoniyatidan mahrum edilar. Stalin va uning atrofidagilar o‘zlarining ko‘p yillik faoliyati davomida “harbiy kommunizm” tamoyillaridan voz kecha olmadilar. 1940-yillarning oxiri – 1950-yillarning boshlarida davlat kolxozlardan 1 kg bug‘doyni 1 tiyinga sotib olardi, do‘konda esa 1 kg un 31 tiyin turardi. Mol go‘shti kolxozlardan 1 kg uchun 23 tiyindan sotib olinib, 1 so‘m 50 tiyinga sotilardi va hokazo [22. B. 120].

Davlat va kolxozlar o‘rtasida ekvivalent bo‘lmagan ayirboshlash asosida qishloqlardan katta mablag‘lar olib qo‘yildi. Bunday davlat siyosati qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga to‘sqinlik qildi, millionlab odamlarning sa’y-harakatlarini samarasiz qildi.

I.V.Stalin vafotidan so‘ng yangi siyosiy yo‘lni tanlash iqtisodiyotdagi ustuvor yo‘nalishlarni o‘zgartirishni talab qilib, birinchi o‘ringa agrar ishlab chiqarish qo‘yildi. 1953-yil sentyabrda o‘tkazilgan soliq islohoti natijasida yer soliqlari 2 barobar kamaytirildi, ba’zilari esa butunlay bekor qilindi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xarid narxlari 3–6 barobar oshirildi, kolxozchilar mehnatiga oldindan haq to‘lash tizimi joriy etildi. Chorva mollari bo‘lmagan barcha xo‘jaliklar go‘sht topshirishdan ozod qilindi, 1953-yil iyunidan keyin chorva mollariga ega bo‘lgan xo‘jaliklar esa 1955-yilgacha go‘sht topshirishdan ozod etildi [23. B. 121].

Umuman, 1940-yillarning ikkinchi yarmi va 1950-yillar boshida agrar sohaning kollektiv shakli ham, yakka tartibdagi xo‘jaliklar ham inqiroz holatida edi. Bu shundan dalolat ediki, Stalin hukmronligi sharoitida amalga oshirilgan agrar siyosat davomida qishloq xo‘jaligini inqirozdan chiqarib bo‘lmadi. Iqtisodiyotning bu sohasi tub islohotlarga muhtoj ediki, bunday islohotlar Stalin vafotidan keyingina amalga oshirila boshlandi.

Adabiyotlar:

1. *Арутюнян Ю.В*. Советское крестьянство в годы Великой Отечественной войны. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1963. – 458 с.

2. История крестьянства СССР. История советского крестьянства. В 5 томах. Том 4. Крестьянство в годы упрочения и развития социалистического общества 1945-конец 1950-х годов. / Сост.: М.Л.Богденко, О.М.Вербицкая, И.М.Волков и др. – Москва: Наука, 1988. – 395 с.

3. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 432 б.

4. Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. – Ташкент: Узбекистан, 1967. – 364 с.

5. *Пихоя Р.Г*. Советский Союз: история власти, 1945–1991. – Москва: Изд-во РАГС, 1998. – 734 с.

6. Капитальное строительство в СССР. Статистический сборник. – Москва: Госстатиздат, 1961. – 280 с.

7. История СССР с древнейших времен до наших дней: В 12 томах. Том XI. Советский Союз на пути к развитому социализму 1945–1961 гг. / Отв. ред. И.Б.Берхин. – Москва: Наука, 1980. – 653 с.

8. *Зеленин И.Е*. Советская аграрная политика в 1950 – начале 1980-х годов // Россия в XX веке. Реформы и революции. – Том 2. – Москва, 2002. – С. 584–618.

9. *Хрущев Н.С.* Строительство коммунизма в СССР и развитие сельского хозяйства. В 7 томах. Том 6. Октябрь 1961 года – март 1962 года. – Москва: Госполитиздат, 1963. – 479 с.

10. *Ризаев Р.Г.* Сельское хозяйство Узбекистана за 40 лет. – Ташкент: Узбекистан, 1957. – 284 с.

11. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. / Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқалар. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.

12. Фарғона вилоят давлат архиви, 1127-фонд, 4-рўйхат, 215-иш.

13. *Аминова Р.Х*. Колхозное крестьянство Узбекистана на пути к развитому социализму. – Ташкент: Узбекистан, 1983. – 358 с.

14. *Безнин М.А., Димони Т.М*. Социальный протест колхозного крестьянства (вторая половина 1940-х – 1960-е гг.) // Отечественная история. – Москва, 1999. – №3. – С. 81–99.

15. *Вербицкая О.М*. Российское крестьянство от Сталина к Хрущеву: середина 1940-х – начало 1960-х гг. – Москва: Наука, 1992. – 224 с.

16. *Попов В.П*. Крестьянство и государство (1945–1953) // Исследования новейшей русской истории. – Париж: 1992. – № 9. – С. 176–242.

17. Фарғона вилоят давлат архиви, 1124-фонд, 2-рўйхат, 962-иш.

18. *Безнин М.А., Димони Т.М*. Завершение раскрестьянивания в России (вторая половина XX века) // Россия в XX веке. Реформы и революции. – Том 1. – Москва: Наука, 2002. – С. 632–643.

19. Сообщение Государственного планового комитета СССР и Центрального статистического управления СССР об итогах выполнения четвертого (первого послевоенного) пятилетнего плана СССР на 1946–1950 годы. – Москва: Госполитиздат, 1951. – 43 с.

20. Ўзбекистон ССР тарихи. 4 томлик. 4-том. Социализм қуришни тугаллаш даври ва коммунизмга ўтиш (1938–1965 йиллар). / Бош муҳаррир И.М.Мўминов. – Тошкент: Фан, 1971. – 624 б.

21. Советское крестьянство. Краткий очерк истории. 1917–1970. – Москва: Политиздат, 1973. – 592 с.

22. *Волков И.М.* Деревня СССР в 1945–1953 годах в новейших исследованиях историков (конец 1980-х – 1990-е годы) // Отечественная история. – Москва, 2000. №6. – С. 115-125.

23. *Денисов Ю.П*. Аграрная политика Н. Хрущева: итоги и уроки // Общественные науки и современность. – Москва, 1996. – № 1. – С. 115–122.

.

THE MATERIAL STATE OF THE RURAL POPULATION OF UZBEKISTAN IN THE YEARS AFTER THE SECOND WORLD WAR (1945-1953)

Jurabek Kh. Yusupov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 5(81). 45-52.

[1]Fergana State University, Fergana, 712000, str. Murabbiylar, 19 (Uzbekistan). E-mail: fardu_info@umail.uz

Key words: agrarian reform, World War II, agriculture, taxes, cotton growing, household farming, collective farm, individual peasant farming, material income, food, drought, natural obligations.

The first years following World War II were extremely difficult for the Soviet people and the Soviet country as a whole. In the post-war period, there was still a food shortage, with most food products distributed by ration cards. Clothing and footwear were scarce, and housing was a severe problem. The war had taken millions of healthy, hardworking people from peaceful life, leaving millions of children orphaned, millions of women widowed, and millions of people disabled.

The most important tasks for the economy of the Uzbek SSR after the war were outlined in the five-year plan for 1946-1950. According to this plan, 3 billion 900 million rubles of capital funds were allocated to all sectors of the national economy. Industrial development efforts were focused on advancing cotton production, which was the leading sector of the republic's economy.

The villagers were forbidden to keep more than one head of cattle. Taxes were levied on every fruit tree on the farm, collective farmers were not given passports, and their freedom of movement was restricted. Also, rural workers were not provided with temporary disability benefits and pension provision, and the system of household and medical services in the villages was extremely low. By the early 1950s, the average monthly income of a collective farmer was 16.4 rubles, which was four times lower than the wages in industry.

The situation of the peasants in the village remained extremely difficult. Meat and milk produced by them were completely confiscated by the state without being left to them. Malnutrition and starvation became a real threat to many farmers. During these years, the population of the cities was somehow provided with minimal food, but the situation in the countryside was catastrophic. In March 1946, the average annual rate of compulsory milk delivery to the state in collective farm households was set at 260 liters per cow in a collective farm and up to 300 liters per cow in an individual dehkan farm. From 1948, collective farmers with grain and rice crops were involved in forced deliveries according to the norms established for individual peasant farms in the district.

Collective farmers and their families lived mainly on personal plots, and they were taxed for their use of plots. Private farms of peasants were taxed in two forms - in monetary form and in kind. The amount of both taxes increased continuously. If in 1940 one peasant farm paid an average of 112 rubles in taxes, then in 1949 this amount was 419 rubles, in 1950 - 431 rubles, in 1951 - 471 rubles, and in 1952 - 528 rubles. Taxes in the form of mandatory delivery to the state were levied on the products produced in the personal subsidiary farms of the collective farmers.

References:

1. Arutyunyan, Yu.V. (1963) *Sovetskoe krest'yanstvo v gody Velikoj Otechestvennoj vojny* [Soviet peasants during the Great Patriotic War]. Moscow: Izdatel'stvo Akademii nauk SSSR.
2. Bogdenko, M.L. (et.al) (1988) *Istoriya krest'yanstva SSSR. Istoriya sovetskogo krest'yanstva* [The history of the peasantry of the USSR. The History of Soviet Peasants]. In: Krest'yanstvo v gody uprocheniya i razvitiya socialisticheskogo obshchestva 1945-konec 1950-h godov [Peasants in the years of consolidation and development of the socialist society 1945 - late 1950s]. In 5 volumes. Vol. 4. – Moscow: Nauka.
3. (2001) *Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari* [The policy of the autocratic regime to plunder the national wealth of Uzbekistan: history's testimonies and lessons]. Tashkent: Shark.
4. (1967) Narodnoe hozyajstvo Uzbekskoj SSR za 50 let [People's Economy of the Uzbek SSR for 50 years]. Tashkent: Uzbekistan.
5. Pihoya, R.G. (1998) *Sovetskij Soyuz: istoriya vlasti, 1945–1991* [Soviet Union: The History of Power, 1945-1991]. Moscow: Izdatel'stvo RAGS.
6. (1961) *Kapital'noe stroitel'stvo v SSSR. Statisticheskij sbornik* [Capital construction in the USSR. Statistical collection]. Moscow: Gosstatizdat.
7. Berhin, I.B. (ed.) (1980) *Istoriya SSSR s drevnejshih vremen do nashih dnej* [History of the USSR from ancient times to our days]. In: Sovetskij Soyuz na puti k razvitomu socializmu 1945–1961 gg. [Soviet Union on the path to developed socialism 1945-1961]. In 12 volumes. Vol. XI. Moscow: Nauka.
8. Zelenin I.E. (2002) *Sovetskaya agrarnaya politika v 1950-nachale 1980-h godov* [Soviet agrarian policy in the 1950s and early 1980s]. In: Rossiya v XX veke. Reformy i revolyucii [Russia in the 20th century. Reforms and Revolutions]. Vol. 2. Moscow. Pp. 584-618.
9. Hrushchev, N.S. (1963) *Stroitel'stvo kommunizma v SSSR i razvitie sel'skogo hozyajstva* [The construction of communism in the USSR and the development of agriculture]. In 7 volumes. Vol. 6. October 1961 - March 1962. Moscow: Gospolitizdat.
10. Rizaev, R.G. (1957) *Sel'skoe hozyajstvo Uzbekistana za 40 let*. [Uzbekistan's Agriculture over 40 Years]. Tashkent: Uzbekistan.
11. Jo'raev, M. (ed.) (2000) *O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida* [The New History of Uzbekistan. Book Two. Uzbekistan during Soviet colonialism]. Tashkent: Shark.
12. Farg'ona viloyat davlat arxivi [State Archive of Fergana Region]. Fund 1127, inventory 4, file 215.
13. Aminova, R.X. (1983) *Kolhoznoe krest'yanstvo Uzbekistana na puti k razvitomu socializmu* [Uzbekistan's collective farmers on the path to developed socialism]. Tashkent: Uzbekistan.
14. Beznin, M.A., Dimoni,T.M. (1999) Social'nyj protest kolhoznogo krest'yanstva (vtoraya polovina 1940-h – 1960-e gg.) [The social protest of the collective farmers (the second half of the 1940s-1960s)]. *Otechestvennaya istoriya.* No3. Pp. 81-99.
15. Verbickaya, O.M. (1992) *Rossijskoe krest'yanstvo ot Stalina k Hrushchevu: seredina 1940-h – nachalo 1960-h gg*. [Russian peasantry from Stalin to Khrushchev: mid-1940s to early 1960s]. Moscow: Nauka.
16. Popov, V.P. (1992) Krest'yanstvo i gosudarstvo (1945–1953) [[Peasants and the State (1945-1953)]. *Issledovaniya novejshej russkoj istorii.* No 9. Pp. 176-242.

17. Farg‘ona viloyat davlat arxivi (AVDA) [State Archive of Fergana Region (ARFA)]. Fund 1124, inventory 2, file 962.

18. Beznin, M.A., Dimoni, T.M. (2002) Zavershenie raskrest’yanivaniya v Rossii (vtoraya polovina XX veka) [The completion of the crucifixion in Russia (the second half of the 20th century]. In: Rossiya v XX veke. Reformy i revolyucii. [Russia in the 20th century. Reforms and Revolutions]. Vol. 1. Moscow: Nauka. Pp. 632-643.

19. (1951) *Soobshchenie Gosudarstvennogo planovogo komiteta SSSR i Central’nogo statisticheskogo upravleniya SSSR ob itogah vypolneniya chetvertogo (pervogo poslevoennogo) pyatiletnego plana SSSR na 1946-1950 gody* [Report of the State Planning Committee of the USSR and the Central Statistical Office of the USSR on the results of the implementation of the fourth (first post-war) five-year plan of the USSR for 1946-1950]. Moscow: Gospolitizdat.

20. Mo‘minov, I.M. (ed.) (1971) *O‘zbekiston SSR tarixi [History of the Uzbek SSR]. In: Sotsializm qurishni tugallash davri va kommunizmga o‘tish (1938-1965-yillar)* [Period of completion of building socialism and transition to communism (1938-1965)]. In 4 volumes. Vol. 4. Tashkent: Fan.

21. (1973) Sovetskoe krest’yanstvo. Kratkij ocherk istorii. 1917-1970. [Soviet peasants. A brief sketch of history. 1917-1970]. Moscow: Politizdat.

22. Volkov, I.M. (2000) Derevnya SSSR v 1945–1953 godah v novejshih issledovaniyah istorikov (konec 1980-h – 1990-e gody) [The village of the USSR in 1945-1953 in the latest research of historians (late 1980s-1990s)]. *Otechestvennaya istoriya*. No 6. Pp. 115-125.

23. Denisov, Y.P. (1996) Agrarnaya politika N.Hrushcheva: itogi i uroki [N.Khrushchev’s Agrarian Policy: Results and Lessons]. *Obshchestvennye nauki i sovremennost’*. No 1. Pp. 115-122.

Muallif haqida ma’lumot:

YUSUPOV Jo‘rabek Hasanboyevich – Farg‘ona davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: jurabek_yusupov@mail.ru